

O'zbekiston Respublikasida mobil raqamni ko'chirish tartibi

1. Raqamni ko'chirish jarayonini boshlash uchun Siz raqamingizni qaysi mobil aloqa operatorning tarmog'iga ko'chirmoqchi ekanligizni aniqlab, ushbu operatorning vakili/ofisiga murojaat qilishingiz lozim.

2. O'zingiz bilan shaxsni tasdiqlovchi hujjat va abonent raqamini ko'chirish uchun arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi boshqa xujjatlar bo'lishi lozim.

MUHIM! Agar Siz yuridik shaxs bo'lsangiz, tashkilotingizni ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ham taqdim etishingiz zarur.

3. Raqamni ko'chirish arizalari aloqa operatorni tushlik vaqti hisobga olgan holda soat 9.00 dan 18.00 gacha qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi, bayram va dam olish kunlari bundan mustasno.

4. Agar Sizning o'ringizga raqamni ko'chirish uchun boshqa shaxs tomonidan ariza berilsa, shaxsni tasdiqlovchi hujjat va ishonchnoma taqdim etilishi lozim.

5. Tarmog'iga o'tmoqchi bo'lgan mobil aloqa operator tomonidan taqdim etilgan raqamni ko'chirish arizasini to'ldiring.

6. Arizani to'ldirganda e'tiborli bo'ling. Agar arizaga kiritilgan ma'lumotlar noto'g'ri yoki yetarli bo'lmasa, Ko'chirilgan raqamlar markazlashgan bazasi tomonidan so'rovingiz rad etilishi mumkin. Ma'lumotlarni tuzatish va qayta yuborish kerak bo'ladi.

7. Abonent raqamini ko'chirish xizmati uchun ushbu mobil aloqa operator tomonidan belgilangan tariflash asosida to'lovni amalga oshiring.

8. Telekomunikatsiya xizmatidan foydalanish bo'yicha mobil aloqa operatori bilan shartnoma tuzib vaqtinchalik raqam bilan yangi SIM-karta oling.

9. Shartnomani tuzish paytida vaqtinchalik raqam bilan yangi SIM-karta haqiqiy ko'chirishgacha faol bo'lib, abonent aloqa xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

10. Quyidagi sabablarga ko'ra raqamni ko'chirishda rad etilishi mumkin, bu haqida ogohlantiruvchi xabar SMS orqali yangi vaqtinchalik raqamiga yuboriladi.

- Oldingi raqam ko'chirishdan 30 kundan kamroq vaqt o'tgan;
- Boshqa operatorlarda raqamni ko'chirish uchun oldin berilgan faol ariza mavjud;
- Raqam ariza bergan abonentga tegishli emas (ma'lumotlar mos kelmaganligi);
- Raqam yo'qotilishi/o'g'irlanishi yoki tartibga soluvchining ko'rsatmasiga binoan bloklangan;
- Avvalgi operator bilan shartnoma bekor qilingan;
- Oldingi operatorlarda qarzdorligi mavjud.

11. Raqamni ko'chirishda rad etilgan taqdirda, abonent unga berilgan SIM-karta orqali retsipiyentning aloqa xizmatlaridan foydalanishni davom ettirishi mumkin, bunda ushbu retsipiyentga abonent raqamini ko'chirish uchun qayta ariza berilsa, aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida yangi shartnoma tuzish talab qilinmaydi.

12. Agar raqamni ko'chirishda rad etish sabablari bo'lmasa, raqamni ko'chirish umumiy jarayoni mobil aloqa operator arizani qabul qilingan vaqtidan 8 ish soatidan ko'p bo'lmagan vaqt davomida amalga oshiriladi. Agar Siz arizani ish kuni oxirida taqdim etsangiz, raqamni ko'chirishi ertangi ish kunida amalga oshirilishi mumkin.
13. Raqamni ko'chirish tartib-taomillari yakunlanganligi to'g'risida, Sizga yangi SIM-kartaga SMS orqali xabar yuboriladi.
14. MUHIM! Bir vaqtda bir nechta operatorga portatsiya uchun ariza bermang! Abonenti bo'lishni istagan operatorni tanlab, faqat ushbu operatorga portatsiya uchun arizani bering.